

UO‘K: 574.57.02

**ZOMIN MILLIY TABIAT BOG‘IDA O‘SADIGAN DORIVOR
O‘SIMLIKLARNI QAYTA TIKLASH VA MUHOFAZA ETISH
YO‘LLARI**

Sattarov Muzaffar Eshtemirovich – biologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Toshkent vaksina va zardoblar ilmiy-tadqiqot instituti Ishlab chiqarishga
mo‘ljallangan mikroorganizmlar milliy kolleksiyasi mudiri, e-mail:

m_sattarov@mail.ru, Toshkent shahri,

To‘raqulova Dilnoza Egamberdiyevna – Islom Karimov nomidagi Toshkent
davlat texnika universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada Zomin milliy tabiat bog‘ida o‘sadigan dorivor o‘simliklar ro‘yxati va ularga ta‘sir etuvchi antropogen omillar bayon etilgan. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra hududda hududda tarqalgan dorivor o‘simliklar turlari 107 turni tashkil etib, shundan 11 turi kamyob, 5 turi O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan. Noyob va yo‘qolib boradigan dorivor o‘simliklar qayta tiklash va muhofaza etish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Zomin milliy tabiat bog‘i, o‘simlik dunyosi, antropogen omillar, ekosistema.

Аннотация. В статье описан перечень лекарственных растений, произрастающих на территории Зааминского национального природного парка, и влияющие на них антропогенные факторы. По результатам проведенных исследований на территории региона распространено 107 видов лекарственных растений, из них 11 видов являются редкими и 5 видов занесены в Красную книгу Республики Узбекистан. Показаны пути восстановления и защиты редких и исчезающих лекарственных растений.

Ключевые слова: Зааминский национальный природный парк, флора, антропогенные факторы, ekosistema.

Summary. The article describes the list of medicinal plants growing in the Zaamin National Nature Park and the anthropogenic factors affecting them. According to the results of the conducted research, there are 107 species of medicinal plants distributed in the region, of which 11 species are rare and 5 species are included in the Red Book of the Republic of Uzbekistan. Ways to restore and protect rare and disappearing medicinal plants are shown.

Key words: Zaamin National Nature Park, flora, anthropogenic factors, ecosystem.

Zomin milliy tabiat bog‘i o‘simlik dunyosi boy bo‘lib, qadimdan botanik olimlarni e‘tiborini o‘ziga jalb qilgan. Ayniqsa uning o‘simliklar dunyosini O.E.Knorring (1916), M.G.Popov va N.Andrasov (1936), Drobov (1938-1950), Dmitriv (1938), Andrasov (1967), P.A.Gomoliskiy (1935), L.I.Nazarenko, Ye.M.Demurinalar chuqur o‘rgangan [1-3].

Inson hayotida muhim ahamiyat kasb etgan dorivor, efirmoyli, asalshirali, oshlovchi, oziq-ovqat, manzarali, qurilish materiallari tayyorlash va yoqish uchun ishlatiladigan va boshqa guruhlariga kiruvchi o‘simliklar keng tarqalgan.

Zomin milliy tabiat bog‘i o‘simlik dunyosiga bir qancha antropogen omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Xususan, hududda va uning tashqarisida aholi tomonidan qoramollarni betartib boqish, tog‘ yon bag‘irlariga qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish maqsadida tabiiy zaxiralarni yuqotish, yoqilg‘i uchun ishlatish, dorivor maqsadda ko‘p miqdorda rejasiz terib olish, daraxtlarni kesish va yo‘l qurilishi uchun foydalanish, tabiiy ofatlar (sel, tabiiy yong‘in, iqlim nosozligi va hokozolar) oqibatida o‘simlik dunyosining kamayib ketishiga olib kelmoqda.

Zomin milliy tabiat bog‘i dorivor o‘simliklarining kamayib ketayotganligining asosiy sabablari aholi tomonidan ziravor, dorivor va em xashak sifatida ko‘p miqdorda yig‘ishtirib olishdir. Olingan natijalarga ko‘ra hududda tarqalgan dorivor o‘simliklar turlari 107 tur, shundan 11 turi kamyob, 5 turi O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga (2009) kiritilgan [4].

Zomin milliy bog'ining dorivor o'simliklari ro'yxati

№	O'simlik nomi	Hayotiy shakli	Tarqalishi
1	<i>Ophioglossaceae</i> <i>Botrychium lunaria (L.) Sw</i>	5	Sp
2	<i>Equisetaceae</i> <i>Equisetum ramosissimum Desf</i>	11	Cop ¹
3	<i>E.Arvens</i>	11	Cop ¹
4	<i>Cupressaceae Juniperus turkestanica Kom.</i>	1	Cop ¹
5	<i>Juniperus</i> <i>Seravschanica Kom</i>	1	Cop ²
6	<i>Juniperus</i> <i>Semiglobosa Regel</i>	1	Cop ²
7	<i>Ephedraceae</i> <i>Ephedra equisetina Bunge</i>	3	Sp ³
8	<i>E. intermedia</i>	3	Sp ³
9	<i>Liliaceae</i> <i>Colchicum Kesselringii Regel K.K.B.</i>	7	Sp ²
10	<i>Colchicum luteum Baker</i>	7	Sp ²
11	<i>Tulipa turkestanica Regel</i>	7	Sp ²
12	<i>Tulipa affinis Z Botsch</i>	7	Sp ²
13	<i>Amaryllidaceae Ungernia oligostroma M/Papet Vved</i>	7	Sol
14	<i>Salicaceae</i> <i>Salix ruchastuchyo Andress</i>	1-2	Sp
15	<i>Populus alba L.</i>	1	Sp
16	<i>Ulmaceae Urtica dioica L.</i>	6	Sp ³
17	<i>Polugonaceae Rumex contertus</i>	6	Cop ¹
18	<i>Rumex crispus L.</i>	6	Cop ¹
19	<i>Rheum maximowiczii</i>	6	Sp
20	<i>Polygonum aviculare L</i>	9	Sp ³
21	<i>Caryophyllaceae Herniaria glabra L.</i>	9	Sp ²
22	<i>Melandrium turkestanicum(Rgl.) Vved.</i>	6	Cop ¹
23	<i>Allochruza gypsophyllides Rgl.7</i>	6	Sol
24	<i>Ranunculaceae Thalictrum isopyroides C.A. Mey</i>	13	Cop ²
25	<i>Thalictrum minus L.</i>	13	Cop ²
26	<i>Adonis turkestanica (Korsh) Adolf.</i>	6	Sp ³
27	<i>Delphinium semibarbatum Bienert.</i>	12	Sp
28	<i>Berberidaceae</i> <i>Berberis oblonga Schneid.</i>	2	Sp ³
29	<i>Papaveraceae Glaucium elegans Fisch et Mey</i>	9	Sp
30	<i>Glaucium fimbriligerum Boriss</i>	8	Sp
31	<i>Roemeria refracta (Stev) DC</i>	9	Cop ¹
32	<i>Fumariaceae Corydalis legebouiriana Kar et Kir</i>	6	Cop ¹

33	<i>Corydalis sewerzowii</i> Regel K.K.B.	6	Sp
34	<i>Fumaria vaillantii</i>	6	Sp ²
35	<i>Cruciferae Thlaspi arvense</i> L.	9	Cop ²
36	<i>Capsella bursa-pastoris</i> (L) Medic.	8	Cop ²
37	<i>Draba stenocarpa</i> Hook.	9	Sp ²
38	<i>Crassulaceae Rosularia paniculata</i> (Regel et Schmalh) Boriss	6	Sp ³
39	<i>Rosaceae Potentilla reptans</i> L.	6	Cop ²
40	<i>Poterium polygamum</i> Waldst et Kit	6	Sp ²
41	<i>Rosa fedtschenkoana</i> Regel	2	Cop ²
42	<i>Rosa nanothamnus</i> Bouleng in Bill	2	Cop ²
43	<i>Rosa ecae etitch</i> in Yeurh	2	Cop ²
44	<i>Rosa maracandica</i> Bunge	2	Cop ²
45	<i>Amygdalus spinosissima</i> Bunge	2	Cop ¹
46	<i>Amygdalus bucharica</i> Korsch	2	Cop ¹
47	<i>Malus seversii</i> (Ledeb) M.Roem.	1	Cop ²
48	<i>Fabaceae Melilotus officinalis</i> (L.) Pall	8	Cop ²
49	<i>Trifolium pratense</i> L.	6	Cop ²
50	<i>Trifolium repens</i> L.	6	Cop ²
51	<i>Lathyrus pratensis</i>	10	Cop ²
52	<i>Astragalus filicaulis</i> Fesch.	9	Cop ²
53	<i>Glycyrrhiza glabra</i>	6	Cop ¹
54	<i>Medicago denticulata</i> Willd.	9	Cop ²
55	<i>Psoralea drupacea</i> Bunge	6	Sp
56	<i>Rutaceae Haplophyllum versicolor</i> Fisch et Mey	6	Cop ²
57	<i>Haplophyllum latifolium</i> Kar et Kir	6	Cop ²
58	<i>Polygalaceae Polygala hybrida</i> D.C.	13	Cop ²
59	<i>Rhamnaceae Rhamnus coriacer</i> (Regel) Kom	2	Sp ²
60	<i>Malvaceae Malva neglecta</i> Wallr	6	Sp ³
61	<i>Alcea nudiflora</i> (Linde) Boiss	6	Sp
62	<i>Guttiferae Hypericum perforatum</i> L.	6	Sp ³
63	<i>Hypericum scabrum</i> L.	6	Cop ²
64	<i>Hypericum elongatum</i> Ledeb	6	Sp
65	<i>Daticaceae Datisca cannabina</i> L.	6	Sp
66	<i>Onagraceae Chamerion angustifolium</i> (L.) Holb in Folia	6	Sp
67	<i>Apiaceae Eryngium macrocalyx</i> Schrenk in Fisch	6	Sp
68	<i>Echinophora sibthorpiana</i> Luss	6	Sp
69	<i>Scandix pectin ve neris</i> L	9	Cop ²
70	<i>Carum carvi</i> L.	8	Cop ²
71	<i>Bunium capusii</i> (Franch) Korov	6	Cop ²
72	<i>Bunium intermedium</i> Korov	6	Cop ²
73	<i>Gentianaceae</i> <i>Gentiana olivieri</i> Griseb	6	Cop ³
74	<i>Lomotogonium carinthiacum</i> (Wulf) Reichd	9	Sol
75	<i>Convolvulaceae Convolvulus arvensis</i> L.	6	Cop ²

76	<i>C. lineatus L.</i>	6	Cop ²
77	<i>C. pseudocan tabrica Schrenkin Fisch et Mey</i>	6	Cop ²
78	<i>Lamiaceae Scutellaria cordifrans juz</i>	4	Cop ²
79	<i>Sideritis Montana L.</i>	9	Cop ²
80	<i>Leonurus turkestanicus V Krecz et Kuprian.</i>	6	Sp ²
81	<i>Perovskia angustifolia Kudr.</i>	4	Cop ²
82	<i>Ziziphora pedicellata Pazij et V ved.</i>	4	Cop ²
83	<i>Mentha asiatica Boriss.</i>	6	Cop ²
84	<i>Scrophulariceae Verbascum songaricum Schrenk.</i>	8	Cop ²
85	<i>Scrophularia umbrosa Dumort.</i>	6	Sol
86	<i>Dotartia orientalis L.</i>	6	Cop ²
87	<i>Plantaginaceae Plantago major L.</i>	13	Cop ²
88	<i>Rubiaceae Galium aparine L.</i>	10	Cop ²
89	<i>Galium verum L.</i>	6	Cop ²
90	<i>Dipsacaceae Dipsacus dipsacoides (Kar et Kir) Botsch</i>	6	Sol
91	<i>Scabiosa songorica Schrenk</i>	6	Cop ²
92	<i>Campanullaceae Asyneuma argutum (Regel) Bornm</i>	12	
93	<i>Codonopsis clematidea (Schrenk) Clarke</i>	12	Sp
94	<i>Caprifoliaceae Lonicera microphylla Willd. Ex Schult/</i>	2	Cop ²
95	<i>Lonicera paradoxa</i>	2	Sol ²
96	<i>Asteraceae Helichrysum maracandiam M. Pop ex Kir</i>	6	Sp ²
97	<i>Achillea felipendulina Lam</i>	6	Sp ²
98	<i>Achillea biebersteinii C. Afan</i>	6	Sp ²
99	<i>Handelia trichopylla (Schrenk) Heimerl</i>	6	Sp
100	<i>Artemisia absinthium L.</i>	6	Sp ³
101	<i>Artemisia dracunculus L.</i>	6	Sp ²
102	<i>Artemisia persica Boiss</i>	6	Sp
103	<i>Artemisia rutifolia Willd</i>	4	Sp
104	<i>Tussilago farfara L.</i>	6	Cop ²
105	<i>Acroptilon repens (L.) D.C.</i>	4	Sol
106	<i>Cichorium intubus L.</i>	6	Cop ²
107	<i>Taraxacum alpinum montanum C.A/Mey</i>	6	Cop ²

Antropogen faktorlar o‘simliklar ekosistemasini shakllanishiga hamda rivojlanish dinamikasiga ta’sir etadi. Bunga chorva mollarining sonini ortib borishi, maydonlarda boqilishi, tog‘ yonbag‘irliklarini turli maqsadlar uchun o‘zlashtirilishi, bog‘-rog‘larni hamda qishloq xo‘jalik tarmoqlari uchun zarur bo‘lgan o‘simliklarni ko‘paytirilishi, o‘stirilishi, daraxt va butalarni qirqib o‘tin va qurilish materiallari o‘rnida ishlatilishi hamda eski yo‘llarni tiklash,

kengaytirish, yangi yo‘llarni barpo etish, dorivor, oziq-ovqat, texnik o‘simliklarni nazoratsiz, tartibsiz tayyorlash salbiy ta’sirlarini ko‘rsatmoqda [5-6].

Noyob va yo‘qolib boradigan o‘simliklar turlarini saqlab qolish hamda ko‘paytirish muammolari qiyinlashmoqda. Ularni u yoki bu hududlarda tarqalishini aniqlash, populyastiya holatini o‘rganish, turlarni yo‘qolib borishiga ta’sir qiluvchi omillarni hisobga olishni o‘z vaqtida tadbir choralari ko‘rilishi zarur. Tadqiqot o‘tkazilgan hududlardagi noyob dorivor o‘simliklar turlari deganimizda, birinchi galda shu hudud uchun noyob (o‘z tarqalish areali chegarasida) yoki boshqa regiondan keltirilgan, tabiiy sharoitga moslashtirilgan bo‘lishi mumkin. Turlar tahlil qilinganda shu hududlarda kamdan kam o‘sayotgan, muhim ahamiyatga ega bo‘lganlari noyob o‘simliklarga kiradi (*Ungernia oligostroma*, *Aconitum talassicum*, *Ferula sumbul*), ikkinchidan endem o‘simliklar, nafaqat milliy bog‘ hududida, butun Turkiston tizmasi hududlari uchun, balki boshqa hududlarga ham taaluqlidir.

Xulosa qilib shuni aytamizki, Zomin milliy tabiat bog‘i dorivor o‘simliklarga juda boy maskan. Bu yerda Respublikamiz o‘simlik olamida hali aniqlanmagan va o‘rganilmagan turlar juda ko‘p. Dorivor o‘simlik boyliklaridan foydalanishda, o‘simlik guruhlarining ekologik muvozanatiga ta’sir etmaslik uchun ularni yig‘ishtirib olish va tayyorlash qoidalariga rioya qilinsa, bu muvozanat o‘zgarmaydi. Aks holda o‘simliklardan nooqilona foydalanish natijasida ko‘pchilik o‘simlik turlarining yo‘q bo‘lib, zaxiralarining kamayib ketishiga olib keladi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Попов М.Г. Основные черты истории развития флоры Средней Азии // Бюллетен Средне-Азиатского государственного университета. 1927. № 15.
2. Дробов В. П. Леса Узбекистана. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1950.
3. Агафонов М.В. и Сивораक्षा Г.С. Естественное возобновление арчи в Зааминской лесной даче. // Труды Уз ДООС, Ташкент, 1936.

4. O‘simlik dunyosi ob’ektlarini hisobga olish va boshqa ma’lumotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish kitobi // Zomin, 2020 yil.
5. *Sakiev K.B., Torakulova D.E., Borasulov A.M., Sattarov M.E. Zamin grows in the national nature garden and is used in folk medicineroses - special properties of unique medicinal plants belonging to the Rosaceae family. // Nature and Science MARS LAND PRESS. Multidisciplinary Academic Journal Publisher Researcher 2023;15(3):50-53]. ISS N 1553-9865 (print); ISSN 2163-8950 (online). 08.doi:10.7537/marsrsj150323.08. pp. 50-53.*
6. Сакиев К.Б., Туракулова Д.Э., Саттаров М.Э., Назаров Б.Б. Уникальные лекарственные растения, произрастающие в Зааминском национальном парке и используемые в народной медицине // Экология родного края: Проблемы и пути их решения XVII Всероссийская научно-практическая конференция с международным участием 26-27 апреля 2023.